

LOMELOSIA OLIVIERI (COULT) TURINING KO`HITANG VA QUYI SURXON GEOGRAFIK RAYONIDA UCHRASHI.

Abdullayev Salmonbek Murodali o`g`li

Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabas

Xolmirzayev Mahmud Ergashovich

Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabas

Menglimamatova Rohila Raxmatillo qizi

Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabas

salmonbekabdullayev2001@gmail.com

Mahalliy florani to`r tizimli xaritalash 2000-2010 yillar mobaynida butun Evropani toliq qamrab oldi. Buning obektiv sabablaridan biri bu hududning botanic jihatda to`liq o`rganilishi yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Kamyob turlarning tarqalishi, populyatsiyalarning tabiiy holatiga tasir ko`rsatuvchi omillar tahlili va muhofaza choralarini belgilashning eng muhim asosi sifatida aynan to`rtizimli xaritalash metodi qabul qilingan. To`r tizimli xaritalash O`rta Osiyo davlatlari ichida birinchi bo`lib O`zbekistonga kirib kelgan. Har bir davlatning geografik o`rni va geografik hududiga qarab to`r tizimga solinadi. O`zbekiston hududidagi to`r tizimli xaritalash esa 5km × 5km qilib sistemaga solingan. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika inustitning olimlari tomonidan bu loyha 2019- yilda qo`lga kiritilgan bo`lib, sinov tariqasida O`zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari olingan bo`lib, 2019 va 2024-yillarda amalga oshirish ko`zga tutilgan. Bu to`r tizimning amaliy ahamiyati shundan iboratki biror bir floristic tadqiqot olib boorish kerak bo`lganda Google Earth, MAPS.ME, Tracklia kabi dasturlaridan olingan kordinata va kataklarga yo`naltiradi va tadqiqot davomidagi turni toppish va uning kordinatasini belgilashga yordam beradi.

Quyida Surxon tabiiy geografik rayoni Amudaryo vodiysini, va Surxondaryo vodiysini quyi qismini (Yangi qishloqdan quyida joylashgan) va Sherobod daryo yoyilmasini 300-450 metr mutloq balandlikdagi qismini o`z ichiga oladi. Geografik rayonda yillik yog`in miqdori (130-150 mm) , kuzning quruqligi va yozning quruq va jazirama issiqligi (iyulda havoning o`rtacha xarorati +31,5 +32 ). Rayonda geologic, geomorfologik, tupr oq-gurunt sharoitining xilma-xilligidan kelib chiqib, 5 ta landashift xili ajratilgan. (I.A.Xasanov P.N.G`ulomov A.A.Qayumovlarning "O`zbekiston tabiiy geografiyasi" (2-qism) 105-106- betlar)



Quyi Surxon hududining umumiy maydoni 3520,15 kv.km.ni tashkil etadi. Mamuriy geografik jihatdan Termiz tumani, Angor tumani, Muzrabod tumani, Qiziriq va Sherabod tumaning quyi qismi va Jarqo'rg'on tumanini qamrab oladi.

Lomelosia olivieri (Coult) – hayotiy shakli bir yillik o'simlik. Poyasi yupqa , asosdan ikki tomonlama shoxlangan, tekis, balandligi 15-30 sm . Barglari chiziqsimon –cho'zinchoq yoki chiziqli nayzasimon, tepasi biroz tukli pastki qismi uzun va yumshoq tukli. Gullaridagi boshchalar 3-8 mm diametrga ega, mevalari esa 5-12 mm, gular soni esa uchtdan o'nbeshtagacha bo'ladi. Corollasi pushti yoki ochpushti, tashqi tomoni tukli.(Flora O'zbekiston 5-t "Toshkent"-1961-y, (599-b), Senikov.A.N. TajiboevK.Sh. Karimov F.I. Flora O'zbekiston 3-t "Toshkent"-2019 74-75- betlar).*Lomelosia olivieri* (Coult) o'simligining umumiy ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.

(1-rasm).



Qumli va gilli cho'llarda , toshli tog' yonbag'rilarida, gil- gipisli tog' yonbag'irlarida, quruq dasht, qumli shag'alli cho'l, erozyaga uchragan qumtoshli yerlar, daryo yaqinidagi shag'alli tuproq, tog' etaklarida va tog'larning o'rta hududlarigacha uchratish mumkin. Dengiz sathidan 300-2200 metr bo'lgan balandliklarda uchraydi. (Flora O'zbekiston 5-t "Toshkent"-1961-y, (599-b))

April, May, Iyun ba'zida Iyul oyigacha davom etadi. (Senikov.A.N. TajiboevK.Sh. Karimov F.I. Flora O'zbekiston 3-t "Toshkent"-2019 74-75- betlar.)



2022-yilda Ko'hitang geografik rayonini o'rganish va Dala amalyoti davomida "Lomelosia olivieri (Coult) turini birnecha hududlarda uchratdik va ulardan gerbariylar tayorlanib, gerbariylar fondiga kiritdik. O'tkazilgan tahlillarimiz natijalari (1-jadvalda) keltirilgan.

(1-jadval)

Oila	Turkum	Tur	Terilgan hududi	Uzunlik	Kenglik	Katak	Sana
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Ko'hitang. Shalqon	37.823516	67.667993	O188	13.05.2022
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	G'URJAK qishlog'i	37.888841	66.802177	P190	31.05.2022
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Sholqon 2-lager	37.866931	66.632511	O187	31.05.2022
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Sholqonqi shlog'i	37.807917	66.687293	N187	15.05.2022

Lomelosia olivieri (Coult.) turning Ko'hitang geografik rayonidan 19.06.1914-yil Sherabotdan Popov 260; 23.04.1915-yil Popov 214; 08.06.1968-yil Kampirtepadan Djumaev; Vandobdan 1970-yil Djumaev; .(Senikov.A.N. Tajiboev K.Sh. Karimov F.I. Flora O'zbekiston 3-t "Toshkent"-2019 76- bet.)

13.05.2022-yil Shalqondan.Terilganlik kordinatasi; 37*823516 66*679993. Katagi;O188 15.05.2022-yil Gurjak qishlog'idan o'tgandan yo'l bo'yidan, Kordinatsi; 37*888841 66*802177.. Katak P190.. 31.05.2022-yil Shalqon 2-lager , Kordinatasi; 37*866931 66*632511. Katagi; O187. 31.05.2022-yil Shalqon qishloq , Kordinatasi;37*807917 66*687293 , Katagi N188.

Lomelosia olivieri (Coult) turning Quyi Surxon tabiiy-geografik rayoni hudidida terilganligi.Surxondaryosining o'ng qirg'og'i, Takao'ldisoydan 01.07.1934-yil



Demurina 76; Xaudaksoydan 27.05.1927-yil Vedeniskiy 81; tomonidan terilgan. (Senikov.A.N. TajiboevK.Sh. Karimov F.I. Flora O'zbekiston 3-t "Toshkent"-2019 76- bet.)

2022-yilda Quyi Surxon tabiiy-geografik rayoni hudidini o'rganish va Dala amalyoti davomida "Lomelosia olivieri (Coult) turini bir necha hududlar da uchratdik va ulardan gerbariyalar tayyorlanib, gerbariyalar fondiga kiritdik. O'tkazilgan tahlillarimiz natijalari (2-jadvalda) keltirilgan.

(2-jadval)

Oila	Turkum	Tur	Terilgan hududi	Uzunlik	Kenglik	Katak	Sana
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Surxondaryo viloyati Termiz tumani kattaqum massivi, Uchqizil qishlog'i atrofi.	37.357965	67.221353	D197	13/05/2022
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Surxondaryo viloyati Oqtapa suv ombori atrofi.	37,367947	67,288696	E199	24/05/2002
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Surxondaryo viloyati Termiz tumani kattaqum massivi.	37,32158	67,313258	D198	07/04/2022
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Surxondaryo viloyati Oqtapa suv ombori atrofi.	37,4 48208	67,4 94934	F 202	10/12/2021
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Surxondaryo viloyati Termiz tumani kattaqum massivi,	37,3 48266	67,326962	D199	14,05,2022
Caprifoliaceae Juss.	Lomelosia Raf.	Lomelosia olivieri (Coult.) Greuter & Burdet	Surxondaryo viloyati Oqtapa suv ombori atrofi.	37,401591	67,466143	E202	26/05/2022

Biz 2022-yil Quyi Surxon tabiiy-geografik rayonida" ilmiy izlanishlar" va "dala amalyoti " davomida 13.05.2022-yil Termiz tumani Uchqizil suv ombori atrofi, Kordinata: 37*357965 67*221353 , Katagi: D197 . 07.04.2022-yil Termiz



tumani Uchqizil suv omboriga ketdigan yo'l yoqasi, Kardintasi :37*351174 67*248898 Katagi: D198. 24.05.2022-yil Termiz tumani Kattakum (Jarqo'rg'on tumaniga ketadigan yo'l usti) Kardinatasi:37*367947 67*288696 , Katagi:E199 .26.05.2022-yil Jarqo'rg'on tumani Oqtepa suv ombori atrofida terildi. Kardinatasi 37*430431 67*471642 , Katagi F202.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Bir qancha ilmiy izlanishlar natijasida o'rganilgan *Lomelosia olivieri* (Coult) turining – hayotiy shakli bir yillik o'simlik. Poyasi yupqa, asosdan ikki tomonlama shoxlangan, tekis, balandligi 15-30 sm. *Lomelosia olivieri* (Coult) turni cho'l hududida, tog' etaklarida va tog'larning o'rta hududlarigacha uchratish mumkin. Dengiz sathidan 300-2200 metir bo'lgan balandliklarda uchraydi. Bu turning fenalogiyasiesi : Aprel oyidan boshlanib, May, Iyun ba'zida Iyul oyigacha davom etadi. Quyi Surxon geografik rayonida va Ko'hitang botanic geografik rayonida olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz davomida ushbu o'simlik turkum va tur tarkibini o'rganib, to'r tizimli xaritalashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqligini aniqladik va Ko'hitang botanik geografik rayoniga qaraganda Quyi Surxon geografik rayonida keng tarqalganligini aniqladik va Quyi Surxon geografik rayoni florasida yanada yaxshiroq o'rganilishi kerakligiga amin bo'ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.I.A.Xasanov P.N.G'ulomov A.A.Qayumovlarning "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" (2-qism) "Toshkent"- 2010 y (105-106- betlar)
- 2.Tojiboev.K.Sh Flora O'zbekiston "Toshkent"- 2019 3-t (74-76-b) Caprifoliaceae (c.47-96) Senikov.A.N. TajiboevK.Sh. Karimov F.I.
- 3.Flora O'zbekiston 5-t "Toshkent"-1961-y, (599-b)
4. Opredetitel rasteniy sredniy azii 9-t va 11-t "Toshkent" -1968
- 5.Opredetitel rasteniy sredniy azii 9-t 1987-y (346-b)
- 6.Flora CCCP 24-t, 1957-yil, (72-bet)
- 7.E.S.Sulaymonov , X.Q. Haydarov, M.A. Hasanov, X.H.Jalov A.Q. Axmedov, Y.Sh.Toshpo'latov. " Botanika fanidan o'quv dala amalyoti uchun" "Toshkent"- 2015 (212-214-b)
- 8.www.ipni.com (International plants Name Index).
- 9.www.powo.com (Plants of the World Online).

